



TOPONIM TUSHUNCHASI NAZARIY TALQINI

Abdullayeva Mumtozabegim

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: *Toponimlarni nazariy o‘rganish geografik nomlarning tahlilini va ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy yo‘nalishdir. Bu soha toponimlarning tarixiy, madaniy va tilshunoslik nuqtai nazaridan qanday rivojlanishini, ularning fonetik, morfologik va semantik jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, toponimlar orqali hududdagi ijtimoiy va etnik jarayonlarni tushunish mumkin. Toponimlarning nazariy o‘rganilishi nafaqat tilshunoslar, balki tarixchilar, antropologlar va geograflar uchun ham muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Toponimlar, lingvistik tahlil, tarixiy rivojlanish, fonetik xususiyatlar, semantik talqin, madaniy kontekst, ijtimoiy jarayonlar.*

Har bir inson kundalik hayotda doimiy ravishda geografik nomlarga duch keladi. Toponimika sohasi haqida olim E.M. Murzayev "zamonaviy jamiyat hayotini geografik nomlarsiz tasavvur etib bo‘lmasligi, ular hamma joyda mavjud va bizning olam haqidagi tasavvurimizga juda yoshligidan hamroh bo‘lishi hamda yer yuzidagi har bir joy, shuningdek, har bir inson tug‘ilgan joyi mavjudligi, tug‘ilgan qishloq, u yashaydigan ko‘cha, shahar, mamlakat-hamma narsaning o‘z ismlari borligi”ni aytadi¹.

Geografik nomlarni o‘rganish tilshunoslikda onomastika yo‘nalishiga tegishli. U joy nomlarining ma’nosini, ularning kelib chiqishini, rivojlanish va foydalanish shakllarini o‘rganadi. Toponimika geografiya, tarix va tilshunoslik fanlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Geografik nomlar nafaqat mintaqaning tarixi va tabiiy xususiyatlarini, balki mahalliy aholining til xususiyatlarini ham aks ettiradi va boshqa hududlarning toponim elementlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Aholi punktlarining

¹ Мурзаев Э. М. География в названиях : [учебное пособие] / Э.М. Мурзаев. – М. : Наука, 1982. – 177 с.



nomlari, ularning kelib chiqishi va tarixi olimlarni qiziqtirib keladi. Bugungi kunda ushbu nomlarni o'rganish bilan turli fanlar vakillari: tilshunoslar, geograflar, tarixchilar va etnograflar tadqiqotlar olib bormoqdalar. Biroq, birinchi navbatda, toponimika tilshunoslar tomonidan o'rganilishi zarur, chunki har qanday ism, qaysi obyektga tegishli bo'lishidan qat'i nazar (u odam, hayvon, yulduz, ko'cha, shahar, qishloq, daryo bo'lsin) til tizimiga kiritilgan, uning qonunlariga bo'ysunadigan va nutqda ishlatiladigan so'z bo'lishi kerak.

Ba'zi geografik nomlar shu qadar qadimiyki, ular tabiiy ravishda paydo bo'lgan deb qabul qilinadi, chunki ularning kelib chiqishi noma'lum — na muallif, na ular tilini ifodalaydigan odamlar topilmagan. Shu bilan birga, paydo bo'lishining aniq sanasi ma'lum yoki keng tarqalgan bunday nomlar ham mavjud. Har bir inson o'z mintaqasi tarixini o'rganishi talab etiladi, chunki uning hayoti u tug'ilgan yoki yashaydigan hudud bilan uzviy bog'liqdir. Odamlar qadimdan atrofdagi dunyoni o'rganib, ularni manbalar orqali kelajak avlodga yetkazishgan. Toponimlar tarixi kelajak avlod uchun ma'lum man'nolarda manbalarda aks etgani kuzatiladi.

Olimlar "toponimika" va "toponimiya" atamalarini farqlab o'rganishni ta'kidlaydilar. Toponimika (yunon. τόπος joy va ονομα ism) - bu joy nomlari, ularning kelib chiqishi, ma'nosi, rivojlanishi, hozirgi holati va imlo va talaffuz qoidalarini o'rganadigan fan. Agar toponimikani lingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqsak, uni geografik nomlar (toponimlar), ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ishlash qonuniyatlarini o'rganadigan onomastika bo'limi sifatida aniqlash mumkin. Toponimiya - bu ma'lum bir hududning toponimlari to'plamidir. Lug'atlarda toponimika geografik obyektlarning nomlarini ifodalovchi va tarixiy geografiya bilan bog'liq bo'lgan nomlarni o'rganadigan fan sifatida belgilanadi².

So'nggi 40-45 yil ichida toponimiya nazariyasi va amaliyoti rivojlanib, bu sohada bir qator ilmiy ishlar yuzaga keldi. Rus olimlaridan V.P. Neronnak, V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev


² *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)*



hamda o'zbek nomshunoslari H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, Z. Do'simov va boshqalarning yordami katta bo'ldi. O'zbekiston toponimiyasining ilmiy tahlili 20-asrning 60-yillaridan boshlab chuqurroq o'rganila boshladi, bu davrda Andijon, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand, Marg'ilon, Qo'qon, Buxoro, Boysun, Mirzacho'l, Shahrisabz va Nurota hududlaridagi joy nomlari tahlil qilindi. Bu sohada toponimiya bilan bog'liq bir qancha lug'atlar, risolalar va monografiyalar chop etildi, jumladan, H. Hasanovning "Yer tili" (1977), S. Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosi" (1978), Z. Do'simovning "Xorazm toponimlari" (1985), T. Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" (1988), N. Oxunovning "Joy nomlari ta'biri" (1994) va boshqalar.

V.P. Neroznak lug'ati tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va lingvistik geografiya kabi sohalarda qo'llaniladigan til tarixini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi, chunki ba'zi toponimlar arxaizm va dialektizmlarni saqlab qoladi. Olimning izohiga ko'ra, toponim - bu tabiiy obyekt yoki inson tomonidan yaratilgan har qanday geografik obyektga ishora qiluvchi ismdir³.

Obyekt turiga qarab, toponimlar quyidagicha tasniflanadi:



1-rasm. Toponimlar tasnifi

³ Нерознак В.П. Лингвистический энциклопедический словарь : [учебное пособие] / В.П. Нерознак. – М. : Советская энциклопедия, 1990. – 658 с.



Gidronimlar tabiatdagi suv havzalari nomlarini, oronimlar tog‘lar va balandliklar nomlarini, speleonimlar g‘or nomlarini, mikrotoponimlar kichik ob'ektlar nomlarini, urbanonimlar shaharlardagi ob'ektlar nomlarini, oykonimlar aholi punktlari nomlarini o‘rganadi.

Toponimlar tasodifiy paydo bo‘lmaydi, balki ular ko‘pincha obyektlarning ba'zi o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Geografik nomlar mintaqaning tabiiy xususiyatlarini, uning flora va faunasini, shuningdek, inson faoliyatini aks ettirishi mumkin. Toponimlarning asosiy vazifasi ob'ektlarni individuallashtirish, ularni boshqalardan ajratishdir. Toponimika geografiya, tarix va etnografiya bilan hamkorlikda rivojlanadi va xalqlarning tarixiy o‘tmishi, ularning joylashuvi va hududiy chegaralarini o‘rganish uchun qimmatli vositadir. Toponimiya makrotoponimiya (katta obyektlar nomlari) va mikrotoponimiya (kichik obyektlar nomlari) ga bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мурзаев Э. М. География в названиях : [учебное пособие] / Э.М. Мурзаев. – М. : Наука, 1982. – 177 с.
2. *[O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi \(2000-2005\)](#)*
3. Нерознак В.П. Лингвистический энциклопедический словарь : [учебное пособие] / В.П. Нерознак. – М. : Советская энциклопедия, 1990. – 658 с.
4. Munosibkhan, I., & Mumtoza, A. (2023). Formation Of Intercultural Communication Competence In Preschool Children. *Journal Of Language And Linguistics*, 6(4), 167-170.
5. Ишанжанова, М., & Кўчқарова, О. Макон Ифодаловчи Дейктик Бирликларнинг Морфологик Тадқиқи. *Ўзбекистон Республикаси Олий Ва Ўрта Махсус Таълим Вазирлиги Заҳриддин Муҳаммад Бобур Номидаги Андижон Давлат Университети*, 270.



6. Ишанжанова, М. С. (2021). Макон” ни ифодаловчи дейктик бирликларнинг чоғиштирама тадқиқи (француз ва ўзбек тилларидаги матнлар таҳлили мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссерт.

7. ИШАНЖАНОВА, М. ШАХС ДЕЙКСИСИНИНГ НУТҚИЙ МУЛОҚОТДА ИФОДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *ILMIY XAVARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (1), 92-95.*